

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT HUQUQINING RIVOJLANISH TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI ISTIQBOLLARI

Pulatov Bekzod Adilbaevich

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Toshkent viloyati Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi*

Annotatsiya. Jinoyat qonunchiligidagi o'zgarishlarni keng ommaga tushuntirish, eng avvalo, huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlariga amaldagi va yangi qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini sharhlash, shuningdek bo'lajak huquqshunoslarning jinoyat huquqidan bilim va ko'nikmalarini davr talablariga mos holda shakllantirish dolzarb vazifalar hisoblanadi.

Kalit so'zlar: jinoyat huquqi, jinoyatchilik dinamikasi, jinoiy repressiya, konkretlashtirish, kriminalallashtirish va dekriminallashtirish asoslari.

Аннотация. Разъяснение изменений в уголовном законодательстве широкой общественности, в первую очередь, разъяснение сущности действующих и вновь принимаемых законов сотрудникам правоохранительных органов, а также знание уголовного законодательства будущими юристами и формирование навыков в соответствии с требованиями времени считаются неотложными задачами.

Ключевые слова: уголовное право, динамика преступности, уголовная репрессия, конкретизатсия, основы криминализатсии и декриминализатсии.

Abstract. Explaining changes in criminal law to the general public, first of all, explaining the essence of existing and newly adopted laws to law enforcement officers, as well as knowledge of criminal law by future lawyers and the formation of skills in accordance with the requirements of the time, are considered urgent tasks.

Keywords: criminal law, crime dynamics, criminal repression, concretization, bases of criminalization and decriminalization.

KIRISH

Sud-huquq sohasi O'zbekiston mustaqillikka erishishi munosabati bilan hamda demokratik, huquqiy, dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan yo'lning tanlanishi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tilishi, xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan shaxsning huquq va erkinliklari tan olinishi munosabati bilan tubdan qayta isloh etilayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu shu bilan izohlanadiki, yangi, mustaqil, demokratik sud-huquq tizimisz mamlakatda to'laqonli ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotni tasavvur etish mumkin emas. Bu, ayniqsa, ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimidan voz kechish hamda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega, qonun ustuvorligi, shaxs, oila, jamiyat, davlat huquq va manfaatlarining ta'minlanishi, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish,

qonunga itoatkor fuqarolarni tarbiyalash, ushbu davlatning eng muhim maqsadi va vositasi hisoblanadigan chin ma'noda demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish haqida qaror qabul qilganidan so'ng katta ahamiyat kasb eta boshladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Mustaqil O'zbekistonning jinoyat qonunchiliginis islohol etish bir masalaga oydinlik kiritishni talab qilar edi: yangi qonunchilikni yaratish yoxud amaldagi qonunlarni takomillashtirish. Ushbu masala bejizga ko'tarilmagan edi. Zamonaviy huquqiy negizni yaratish (eng asosiysi, insonlar ongidan eski totalitar tuzumning stereotiplarini chiqarib tashlash) orqali yangi davlatchilikni barpo etishga qaratilgan siyosiy irodani amalga oshirish zarur bo'lgan o'tish jarayoni sharoitlarida, qonunchilikni takomillashtirish nisbatan afzal edi, zero bu yangi sharoitlarda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi hamda ularning jinoyat-huquqiy muhofaza qilish zaruriyatini prognozlashtirishda xatolarning oldini olishga imkon berar edi. Shu bilan birga, bunday yondashuv «sotsialistik» davrda o'ta darajada obro'sizlanib qolgan edi, chunki jinoyat qonuniga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar, odatda, kon'yunktura tusiga ega edi. Jinoyat kodeksi hokimiyat partiya tuzilmalari va idoralari tomonidan nisbatan utilitar, siyosiy boshliqlarning jinoyatchilik bilan kurashni namoyish etish maqsadida beriladigan har qanday ko'rsatma va so'zlariga darhol munosabat bildiradigan narsa deb ko'rigan, vaholanki, bu kurash amalda yuzaki bo'lgan. Bundan tashqari, bu o'zgarishlar ularni qabul qilish vaqtida hukmron bo'lgan turfa xil nazariy konsepsiyalarni aks ettirgan, shu sababli, Jinoyat kodeksining ayrim moddalari mazmuni ko'p marotaba, ba'zan mutlaqo qarama-qarshi o'zgarishlarga duch kelganiga ajablanmasa ham bo'ladi. Shu va boshqa holatlar mazkur yondashuvdan voz kechishni taqozo etdi.

TADQIQOT NATIJALARI

Jinoyat-huquqiy islohotlar jarayonida hal etilishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalar sirasiga, xususan, quyidagilar kiradi: O'zbekiston Konstitutsiyasi va xalqaro huquqda mustahkamlangan normalar tizimining aks ettirilishi; davlatda shakllangan siyosiy, ijtimoy-iqtisodiy, etnomadaniy, konfessional va ma'naviy-ma'rifiy ahvol maqbul ravishda aks etishi; davlatchilik va ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti istiqbollari, ularning jinoyat-huquqiy muhofaza etilishi maqsadga muvofiqligi inobatga olinishi; yuridik shaxslar va fuqarolar faoliyati hamda turmushiga jinoyathuquqiy «aralashuv»ning maqbul chegarasi; ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda to'plangan tajriba hisobga olinishi hamda avvalgi jinoyat qonunchiligi va uni qo'llash amaliyoti afzalliklarining meros qilib olinishi; jinoyatchilik dinamikasi va tuzilishidagi asosiy tendensiyalar, shuningdek zamonaviy jinoyat siyosatidagi demokratik va iqtisodiy o'zgarishlarning muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan eng muhim asoslardagi ijobjiy o'zgarishlar aks ettirilishi; ijtimoiy fikr, huquqiy ong va qonunga itoatkorlik darjasи, huquqiy madaniyat ahvolining inobatga olinishi; ilmiynazariy ishlanmalar va tavsiyalar imkon qadar to'liq shakl-da qabul qilinishi; xalqaro qonun ijodkorligi tajribasi va xalqaro huquqda umumiyy tan olingan jinoyat-huquqiy normalar hisobga olinishi; jinoiy repressiyaning haqiqiy ijtimoiy-regulyativ imkoniyatlari inobatga olinishi; jinoyat qonunchiliginining haqiqatda

amalga oshirilishi mumkin vazifalari belgilanishi; maksimal darajada rasmiylashuv; jinoyat huquqi prinsiplarining aniq belgilanishi.

Maqsad va vazifalar ro'yobga chiqishi va to'laqonli amalga oshirilishi ko'p jihatdan mustaqil O'zbekistonning jinoyat qonunchiligi umumiy xarakteri haqidagi masalani to'g'ri hal etishiga bog'liq edi, chunki bu yerda ikkita yondashuv mavjud bo'lgan. Shu bilan birga, bu borada bir masalaga yechim topish zarur edi, ya'ni nisbatan yuqori ijtimoiy xavfli bo'lgan xulq-atvor uchun jinoiy javobgarlikni belgilash va shunga mos ravishda o'ta qattiq ta'sir choralarini nazarda tutadigan kichikroq jazo tizimi bilan cheklanib, «kompakt» qonunni loyihalashtirish yoki «nisbatan kam» ahamiyatga ega ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladigan xulq-atvor ustidan davlat va jamiyat nazoratini amalga oshirishga imkon beradigan kodeksni ishlab chiqish. Bu masalani hal etishda, birinchi yondashuvning ma'lum darajada ijobiyligiga qaramasdan, uning afzalliklarini «yo'qqa chiqaradigan» bir qator salbiy jihatlar ham inobatga olingan. Uning asosiy kamchiligi o'ta radikalligida edi, zero, «kichik», biroq o'ta qattiq kodeksning loyihalashtirilishi, uzoq yillar davomida shakllangan jinoyat huquqining bir qator asosiy qoidalarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etar edi. Bu, o'z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlardan jinoyatchilik bilan kurashning ancha shakllangan va aprobatsiyadan o'tgan shakl va uslublarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha jiddiy harakatlarini talab etar edi, chunki mos ravishda boshqa huquq sohalari – jinoyat-protsessual, ma'muriy, tezkor-qidiruv, jinoyat-ijroiya huquqi va boshqalarning huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etar edi. Bundan tashqari, kriminallashtirilayotgan qilmishlar doirasi masalasini hal qilishda kriminalizatsiya huquqiy prinsiplarining barchasini, ayniqsa, tizimli-huquqiy guruhni inobatga olishning imkonini bo'lmas edi, bu esa, samaradorligi past yoki ijtimoiy jihatdan nomaqbul qonun qabul qilinishi xavfini oshirishi mumkin edi. Bu, shuningdek, uncha og'ir bo'limgan jinoyatlar bilan kurashish samaradorligini pasaytirishi ham mumkin edi, ushbu jinoyatlar turkumiga nafaqat an'anaviy tarzda umumiy jinoyatlar sifatida tan olinadigan qilmishlar, balki barcha ehtiyoitsizlik orqasidan sodir etilgan deliklar kiritilar edi. Ularning barchasi yoki katta qismi muqarrar tarzda ma'muriy adliya sohasiga kiritilar edi, vaholanki mazkur huquqiy choralarining samarasini zamонави bosqichda jinoyat-huquqiy tusdagi choralarga nisbatan ancha past. Ayni damda har qanday radikalizm, shu jumladan, qonunchilik jarayonida ham, bu – inqilobdir.

MUHOKAMA

Mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, eng avvalo, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarini ta'minlash, milliy qadriyatlarimizga asoslangan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan davlatimizda olib borilayotgan islohotlar davlat va jamiyat hayotida yangi huquqiy negizni shakkantirish, fuqarolar huquq va erkinliklari hamda qonunchilikka izchil rioya qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar qatorida jinoyat qonunchiligi ham isloh qilindi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari orasida birinchi bo'lib,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil 22 sentyabrdagi 16-sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilinib, u 1995 yil 1 apreldan qonuniy kuchga kirdi.

Shu bilan bir qatorda sud-huquq sohasini isloh qilish, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, mamlakat jinoyat qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish sohalarida ilgari qadam bosildi. Jumladan, 2001 yil 29 avgustda qabul qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun liberallashtirish siyosatining muhim tarkibiy jarayonlarini boshlab berdi. Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan Jinoyat kodeksining aksariyat jinoyat tarkiblari bo'yicha sanksiyalar yengillashtirildi, ularning 26 tasidan qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo choralar chiqarib tashlandi, ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyatlar toifasi 86 tadan 196 taga ko'paydi, shuningdek ushbu Qonun bilan amaldagi Jinoyat kodeksining 105 ta moddasiga jinoiy jazolarning liberallashtirilishi yuzasidan o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Xususan, Jinoyat kodeksida belgilangan jinoyatlar tasnifi tubdan o'zgardi. Og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlarning 75 foizga yaqini ijtimoiy xavfi katta bo'limgan va uncha og'ir bo'limgan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi, jinoiy jazo tizimidan ayrim jazo turlari (mol-mulkni musodara qilish) chiqarilib, jazo tizimi yanada liberallashtirildi.

Bundan tashqari, ushbu qonun bilan jinoyat qonunchiligidan yarashuv institutining joriy etilishi xalqimizga xos bo'lgan kechirimlilik, insonparvarlik, bag'rikenglik kabi azaliy qadriyatlarimizni jinoyat qonunchiligidagi ifodasini yanada mustahkamladi. Mazkur institutning jinoyat qonunchiligiga kiritilgan davrdan boshlab bugungi kunga qadar takomillashtirilib borilishi natijasida bugunga kelib yarashuv institutni qo'llash imkoniyati 26 ta modda (32 ta jinoyat tarkibi) dan 44 ta modda (60 ta jinoyat tarkibi)ga ko'paygani hamda o'tgan davr mobaynida 160 mingdan ortiq shaxslar yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinganligi jinoyat qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish sohacida ulkan qadam tashlanganligini bildiradi.

Jinoiy-huquqiy sohada amalga oshirilgan islohotlar orasida O'zbekiston Respublikasining «O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2007 yil 11 iyul qonuni muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish borasida tub burilish yasadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, 2008 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidan o'lim jazosini chiqarilishi bilan nufuzli xorijiy ekspertlarning ta'kidlashicha, mamlakatimizda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biriga asos solindi.

XULOSA

Yuqorida tahlillardan ko'rinish turibdiki, o'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika rivojlanishi va boshqa zamonaviy o'zgarishlar

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

inobatga olinib, o'zgartishlar, jumladan, inson huquq va manfaatlarining himoyasi, insonparvarlik va demokratizm prinsiplarining amalda ijrosini ta'minlovchi yangi normalar kiritildi.

"Agar hamma birdek jon kuydirib, oilalar muammolaridan to'liq xabardor bo'lib, ularni hal etishga ko'maklashgan, jinoyatchilikning barvaqt oldini olganda edi, bugun natijalar umuman boshqacha bo'lardi. Afsuski, jinoyatchilikka qarshi kurashishda haligacha eskicha ishslash tizimidan voz kecha olmayapmiz. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bu faoliyatga ko'rsatkichlarni oldingi davr bilan taqqoslash orqali baho berib kelmoqda. Aslida bitta bo'lsa ham jinoyat bo'lgani hammamizni tashvishga solishi kerak" - deydi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. – 1995. – № 1. – 1-m; 5. <https://kun.uz/17729101>.
2. <http://old.adolatnashr.uz/page/uzbekiston-zhinoyat-konunchiligi-yaratilishi-tarihi-bugungikuni-rivozhlanishi-istikbollari>;
3. Юсупова Ф. статья 40 конституции республики Узбекистан как гарантия репродуктивных прав граждан //Ревиев оф law ссиенсес. – 2020. – Т. 3. – №. Спесвыпуск. – С. 60-65.
4. Телемедитсинских, история развитии и. применении, анд технологий в. Республики Узбекистан. "господарка и
5. Bakirov X Chor Turkisgonida sud, shariat va odat.-T.: «Fan», 1967,3-bet.
6. 2.Rasulov O. X. Sovet jinoyat huquqi. Umumiyl qism. - Tos'hkent: O'qituvchi. 1969, -B.26.
7. Сулаймонопа Х.С. История советского государства и право Узбекистана. ИИ жилд. - Тошкент: Ўз ССР ФА, И960. 405-406 ст.
8. Лунеев В.В. Преступность в СССР. Основные тенденции и закономерност. // Советское государство и право, 1991, -№8,—C,.94.